



## **DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK (DXSH) LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH VA ULARNING IQTISODIY TAHLILI**

**Bakirov Sanjar Davlatovich**

*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti*

**ORCID:** <https://orcid.org/0009-0009-9584-7522>

**Email:** [bakirov5815@gmail.com](mailto:bakirov5815@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss1/629](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss1/629)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada davlat yoki mahalliy hokimiyat organlar tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan infratuzilma loyihalariga xususiy investorlarni jalb qilishda ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotni tasvirlaydi. Tadqiqot Davlat-xususiy sherikchilik loyihalariga (DXSh) asoslanadi, bunda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tahlil qilinadi. Maqsad, infratuzilma loyihalarida muvaffaqiyatli hamkorlikni ta‘minlaydigan moliyaviy mexanizmlarni o‘rganishdir.

Ushbu tadqiqot, huquqiy mexanizmlarni tartibga solish, yirik infratuzilma loyihalarida xususiy investitsiyalar uchun katta to‘siq bo‘lib, xizmat qilishini va davlat va xususiy biznes o‘rtasidagi hamkorlikni yanada samarali tashkil etish uchun yangi mexanizmlar zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Davlat-xususiy sherikchilik (DXSh), PPP (Public-Private Partnership), iqtisodiy rivojlanish, huquqiy tizim, investitsiya muhiti, infratuzilma loyihalari, samaradorlik, davlat siyosati, moliyaviy tahlil, normativ hujjatlar, qiyosiy tahlil, ekspert fikrlar, prognoz, analitik metodlar.

### **Kirish**

Davlat-xususiy sherikchilik (DXSH) mexanizmi so‘nggi yillarda infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda samarali moliyalashtirish va rivojlantirish usuli sifatida keng tarqalmoqda. Xususiy sektorni jalb qilish orqali davlatlar iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratmoqda. O‘zbekistonda ham DXSh loyihalari jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, bu sohada keng ko‘lamli huquqiy va moliyaviy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida DXSh loyihalarini moliyalashtirish, ularning iqtisodiy tahlili va samaradorligi masalalari yoritilgan. DXSh loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun xususiy sektorning investitsiya faoliyatini rag‘batlantiruvchi omillarni o‘rganish, xalqaro tajribani o‘rganish va yangi moliyaviy mexanizmlarni taklif qilish muhim ahamiyatga ega. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, shuningdek, huquqiy tizimning zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashuvi DXSh loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida katta rol o‘ynaydi.

Tadqiqotning asosiy jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Xususiy investorlarni davlat yoki mahalliy hokimiyat organlar tomonidan qo‘llab quvvatlanadigan infratuzilma loyihalarida ishtirok etishga rag‘batlantiruvchi omillarni chuqur o‘rganish.

- Davlat loyihalariga investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro va ichki tajribalarni ko‘rib chiqish.
- Infratuzilma loyihalariga investitsiya kiritish uchun ishlatiladigan turli moliyaviy modellarga taqqoslash usullarini qo‘llash.

O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantirishda yuzaga keladigan to‘siqlarni bartaraf etish va samarali iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish maqsadida turli yuridik, iqtisodiy va moliyaviy tadqiqotlar olib borish zarur. Ushbu maqola DXSh loyihalarini moliyalashtirishga oid amaliy tavsiyalarni, shuningdek, davlat-xususiy sherikchilik sohasidagi xalqaro tajribalarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

### **Adabiyotlar sharhi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022)” kitobida DXSh loyihalarini moliyalashtirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Kitobda, davlat-xususiy sherikchilikning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga qo‘shgan hissasini ta’kidlash bilan birga, DXSh loyihalarini moliyalashtirishning samarali tizimlarini yaratish zarurligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, DXSh loyihalarini moliyalashtirish masalasi O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda muhim elementlardan biri sifatida ko‘rib chiqilgan. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hukumat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy institutlarning o‘zaro hamkorlikda ishlashlari zarurati ta’kidlanadi.[1]

DXSh loyihalarini moliyalashtirish va ularning iqtisodiy tahlili doirasida Ivailo Izvorski, Arman Vatan, Safarov Maksudjon va boshqalarning “O‘zbekistonning o‘tish jarayonini baholash: mamlakat iqtisodiy memorandumini” nomli to‘liq hisobotida, hukumat xususiy sektorni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratayotganligi, lekin hali ham cheklovlar mavjudligi haqida, shuningdek, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi sekinlashayotganligi va davlat tomonidan belgilangan to‘siqlar sababli yangi firmalar bozorga kirib kelishda qiyinchiliklarga duch kelayotganligi xususida so‘z yuritadi.

Davlat-xususiy sherikchilikning xalqaro tajribalarini tahlil qilishda Gruziya va Armaniston misollarini keltirgan. Gruziya va Armanistonning energetika sektorida xususiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan siyosatlar o‘ziga xos tajriba sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, xususiy sektorni tartibga solish, energiya tariflarini adolatli tarzda belgilash va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish DXSh loyihalarining muvaffaqiyatini ta’minlashda muhimdir.[2]

Shuningdek, Jahon Banki (JB) ma’lulotlari va hisobotlariga asosan DXSh loyihalarini moliyalashtirgan, undan infratuzilmani rivojlantirishda samarali ko‘rsatkichga ega bo‘lgan xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganib chiqilib, O‘zbekistonda bu qanday samara berish borasida prognozlarni shakllantirishda foydalanildi.[3]

Qolaversa, O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va DXSh tizimining rivojlanishiga oid huquqiy tahlillar ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasida 2019-yilda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, 2020-yildagi Nizomlar davlat-xususiy sherikchilik tizimini tartibga soluvchi muhim huquqiy asoslardir. Ushbu hujjatlar davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlash uchun muhim yo‘riqnomalar hisoblanadi.[4]

Xiangyu Quan va Marte C.W. Solheim, (2023) shaharlarning aqlli tizimlar va rivojlanishiga qaratilgan yirik harakatlar uchun davlat va xususiy sektorlarning hamkorligini, ya’ni DXSh ni, muhim omil sifatida ko‘radilar. Maqola urbanizatsiya va aqlli shaharlar

konseptsiyasining o‘zgaruvchan va murakkab tabiati haqida muhim fikrlar bildiradi. Aqlli shaharlarning rivojlanishi uchun DXSh zarur, lekin u hali ham ko‘plab noaniqlik va ideologik jihatlariga ega ekanligi ta’kidlanadi.[5]

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotda DXSh tizimining O‘zbekistondagi iqtisodiy va huquqiy holati, shu jumladan uning rivojlanish jarayonlari va moliyaviy tahlili o‘rganildi.

Tadqiqotda O‘zbekistondagi DXSh loyihalarining soni, hajmi, moliyaviy ko‘rsatkichlari va sektorlar bo‘yicha taqsimlanishi haqida statistik ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu ma‘lumotlar yordamida, DXSh tizimining iqtisodiy samaradorligini o‘lchash va uning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan tahlillar amalga oshirildi. Statistik metodlar orqali investitsiyalarning taqsimlanishi va ular orqali yaratilgan infratuzilma obyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri baholandi.

Shuningdek, DXSh tizimining samaradorligini o‘rganish uchun turli mamlakatlarning tajribalari bilan qiyosiy tahlil olib borildi. O‘zbekistonda joriy etilayotgan DXSh loyihalari va xalqaro amaliyotlar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlashga qaratilgan. Bu usul orqali, O‘zbekistonda DXSh tizimining mavjud muammolari va ularni hal qilish imkoniyatlari o‘rganildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi**

O‘zbekiston hukumati 2017-yildan boshlab bozorlarni yaratish va ularning faoliyatini mustahkamlash maqsadida muhim islohotlarni amalga oshirdi. Boshlang‘ich holatni hisobga olgan holda, O‘zbekistondagi mahsulot bozorlaridagi raqobat darajasi hali ham asosiy hamkorlarga nisbatan zaif deb hisoblanadi. Xususiy korxonalar paydo bo‘la boshladi, ammo xususiy tadbirkorlik hali ham cheklangan. Yangi firmalarning kirib kelishi Yevropa va Markaziy Osiyo (YMO) mintaqasi o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ancha past va uning bir joniga to‘g‘ri keladigan daromadga nisbatan kutilganidan past. Yangi tashkil etilgan firmalarning ish faoliyati ham sust bo‘lib, rasmiy xususiy firmalar vaqt o‘tishi bilan kichik bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, rasmiy xususiy sektorning mehnat unumdorligi so‘nggi o‘n yil ichida kamayib ketdi, bu esa boshqa sohalarda, masalan, savdo bilan bog‘liq etarli ta’sirning yo‘qligi, past innovatsiya darajasi (kiritilgan va chiqarilgan mahsulotlar nuqtai nazaridan), va firmalar imkoniyatlarining zaifligi kabi sohalarda sust natijalarni ko‘rsatadi.

Xususiy sektorning sust javobi buzilgan ishbilarmonlik muhiti bilan bog‘liq bo‘lib, bu resurslarning yuqori unumdorlik va o‘sish potentsialiga ega firmalarga taqsimlanishiga to‘sqinlik qiladi. Bu nafaqat mahsulot bozorlaridagi raqobat darajasining pastligi, balki soliq stavkalari, norasmiy sektor amaliyotlari, ishonchsiz energiya ta’minoti va moliyaviy resurslarga cheklangan kirish imkoniyatlari bilan ham bog‘liq. Ushbu natijalar O‘zbekistonda biznes muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish uchun keng qamrovli siyosatni ishlab chiqish zarurligini kuchaytiradi.<sup>1</sup>

Muhim islohotlar va siyosatlar quyidagi oltita asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

- (1) mahsulot bozorlarida raqobatni davom ettirish;
- (2) soliq tizimi firmalarning o‘sishini jazolamasligini ta’minlash;

<sup>1</sup> Izvorski Ivailo V.; Vatyana Arman; Trushin Eskender; Abdul-Hamid Husein; Dalvit Nicolo; Safarov Maksudjon; Iooty De Paiva Dias Mariana; Novikova Marina; Melecky Martin; Ahmedov Mohirjon; Manuilova Natalia; Zorya Sergiy; Nagaraaj Vinayakraj. *Assessing Uzbekistan’s Transition : Country Economic Memorandum : Full Report (English)*. Washington, D.C. : World Bank Group. <http://documents.worldbank.org/curated/en/862261637233938240/> Full-Report

(3) resurslar samarali foydalanuvchilardan chalg'imasligini ta'minlash uchun norasmiy sektor amaliyotlarini hal etish;

(4) moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish uchun bank sektorida raqobatni rivojlantirish islohotlarini ilgari surish;

(5) elektr energiyasi sektorida infratuzilmani yangilash va firmalarga xizmat sifatini yaxshilash uchun raqobatni kuchaytiruvchi islohotlarni amalga oshirish;

(6) firmalarning o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun faol siyosatlarni joriy etish.

Energetika sohasidagi xususiy investitsiyalarni jalb qilishda jahon tajribasini o'rganish maqsadida bir nechta xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rgan bo'lib, bularda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ijobiy xulosalarga ega bo'lish mumkin.

O'zbekistonga o'xshab, Gruziyadagi xususiy sektor ishtiroki hukumatning ustuvor vazifalaridan biridir. So'nggi yillarda sektor taxminan 1 milliard dollar xususiy investitsiya jalb qildi. Gruziya 1990-yillardan beri sezilarli islohotlar o'tkazdi, bu esa ish faoliyatini samarali qilish, moliyaviy holatni yaxshilash va xususiy investitsiyalarni jalb qilishga yordam berdi. Ushbu islohotlar davomida mamlakatning quvvati uch barobar oshib, 3,600 MW ga yetdi, to'lovlar yig'ish darajasi deyarli 70 foizga oshdi, va kuniga taqdim etiladigan elektr energiyasi soatlari 10 soatdan 24 soatga ko'paydi. Bundan tashqari, xususiy sektor aniqroq tartibga solish tizimini yaratdi, bu tariflar orqali adolatli xarajatlar va aktivlar bo'yicha foyda qaytarilishi ta'minlandi.

Armaniston ham xususiy sektor ishtirokidan foyda ko'rdi. Avvaliga katta yashirin iste'molchi subsidiyalari va past to'lov yig'ish darajalaridan aziyat chekkani tufayli, mamlakat 1990-yillarda sektorni isloh qilish va xususiy investitsiyalarni jalb qilishga harakat qildi. Islohotlar qatoriga hisoblagichlarni o'rnatish, korruptsiyani kamaytirish uchun kommunal xizmatlar to'lovlarini banklar va pochta bo'limlariga o'tkazish, va to'lov qilinmagan holatlarda elektr uzilish siyosatini joriy etish kabi chora-tadbirlar kiritildi. To'lov yig'ish darajasi sezilarli darajada oshdi va 1995–1999 yillar davomida, kommunal to'lovlar bilan ishonchli energiya ta'minoti o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirgan jamoat xabardorlik kampaniyasidan so'ng, tariflar ikki baravar oshdi va xarajatlarni qoplash darajasiga yetdi. Ushbu chora-tadbirlar, shuningdek, sektorni tartibga soluvchi tashkilotning yaratilishi bilan birga, xususiy sektor ishonchini mustahkamladi va so'nggi yillarda sektorga 275 million dollar investitsiya jalb qilindi.<sup>2</sup>

Davlat-xususiy sheriklik tizimining rivojlanishi 2017-yildan boshlab iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida infratuzilmani rivojlantirishga xususiy sektorni keng jalb qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik tushunchasi birinchi marta qonunchilik darajasida 2018-yil 5-apreldagi PQ-3651-sonli “Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi nizom” bilan kiritilgan.

2019-yil 10-maydagi O'RB-537-sonli “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi Qonun qabul qilinishi bilan O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantiruvchi huquqiy asos yaratildi.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli qarori bilan “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizomi tasdiqlandi.

2023-yil yakuniga ko‘ra mamlakatimizda jami loyiha qiymati (kapital qo‘yilmalari) 233 trln so‘mga teng (YalMga nisbatan 21,8 foiz) jami 97810 ta (936 ta davlat-xususiy sheriklik va 42 ta investitsiya) bitimlari imzolangan.

Shundan: qiymati 1 mln dollargacha bo‘lgan loyihalar – 796 ta;

qiymati 1 mln dollardan ortiq bo‘lgan loyihalar – 182 ta.

Sohalar kesimida soni jihatdan eng ko‘p loyihalar suv xo‘jaligi (461), ijtimoiy soha obyektlarini isitish (199) va ta‘lim (88) sohasiga to‘g‘ri kelsa, qiymati jihatidan eng yirik loyihalar energetika (qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurish) va kommunal xizmatlar sohasiga to‘g‘ri kelmoqda (1-rasm)




**1-rasm Sohalar kesimida amalga oshirilayotgan 978 ta DXSh loyihalari (loyiha qiymati bo‘yicha)<sup>3</sup>**

Hududlar kesimida kichik va o‘rta hajmdagi eng ko‘p loyihalar Farg‘ona, Andijon hamda Samarqand viloyatlarida amalga oshirilayotgan bo‘lsa, eng yirik loyihalar Buxoro viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keladi (2-rasm).

Taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 2030-yilga qadar 30 mlrd dollarlik davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish belgilangan. Jumladan, mazkur mablag‘lar umumiy o‘rta ta‘limni rivojlantirishga, global transport-logistika tarmoqlariga integratsiyani chuqurlashtirish va milliy transport tizimining salohiyatini oshirishga, irrigatsiya tizimi va suv tejoychi texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan hamda boshqa sohalardagi loyihalarni amalga oshirish uchun jalb qilinishi belgilangan.

Davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi “Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 558-sonli qarori qabul qilindi.



**2-rasm Hududlarda amalga oshirilayotgan DXSh loyihalari (trln so'm)<sup>4</sup>**

Mazkur qarorga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2024 yildan boshlab har yili bir marotaba davlat-xususiy sheriklik loyihalari bilan bog'liq davlatning to'g'ridanto'g'ri va shartli majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilib boradi.

Dastlabki bosqichda 2023-yil yakuniga qadar imzolangan har birining qiymati 1 mln dollardan ortiq bo'lgan (umumiy qiymati 231,2 trln so'm yoki YaIMga nisbatan 21,7 foiz) bo'lgan 18211 ta loyihalar bo'yicha imzolangan bitimlardan kelib chiqadigan davlatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlar hisob-kitob qilindi (10-jadval). Ta'kidlab o'tish joizki, kichik hajmdagi ya'ni qiymati 1 mln dollardan kam bo'lgan davlat-xususiy sheriklikloyihalari bo'yicha imzolangan bitimlardan kelib chiqadigan davlatning to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlari hisob-kitob qilinib keyingi sharhlarda aks ettiriladi.

Davlatning to'g'ridan to'g'ri majburiyatlari – davlat sherigi tomonidan DXSh bitimida belgilangan hamda miqdorlari, shartlari va muddatlari aniq bo'lgan, to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar bo'lib, ularning tarkibiga bir martalik avans ko'rinishida, shartnoma muddati amal qilishi davomida to'lanadigan doimiy to'lovlar, kelishilgan natijalarga erishilgani uchun to'lanadigan to'lovlar, muayyan xizmatdan foydalanish darajasidan kelib chiqib, to'lanadigan to'lovlar yoki subsidiyalar kiradi.

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi 558-sonli qarori

Ushbu loyihalardagi to'g'ridan-to'g'ri majburiyatlar asosan loyihalarni amalga oshirish uchun binoni qurish va saqlash uchun, elektr energiyasini sotib olish xarajatlari uchun ajratiladigan mablag'lardan iborat.

2024-yil uchun konsolidatsiyalashgan budget prognozi bilan solishtirganda, mazkur bitimlar doirasida yuzaga keladigan davlatning to'g'ridan to'g'ri majburiyatlarining 12 budget daromadlariga nisbati 2024-yilda 1,6 foizni tashkil etishi mumkin.

**2024 yil uchun 182 ta yirik DXSH loyihalaridagi davlatning to‘g‘ridan- to‘g‘ri majburiyatlarning qiymati (trln.so‘m)**

Soha nomi	Loyiha soni	Loyiha qiymati	To‘g‘ridan to‘g‘ri majburiyatlar <sup>5</sup>		
			2024	2025	2026
<b>Energetika*</b>	42	209,3	3,74	8,49	15,98
<b>Kammunal</b>	1	16,9	1,85	1,78	1,1
<b>Ijtimoiy soha obyektlarini isitish</b>	33	0,57	0,29	0,33	0,36
<b>Sog‘likni saqlash</b>	7	0,38	0,11	0,12	0,13
<b>Suv xo‘jaligi</b>	5	0,14	0,09	0,09	0,1
<b>Ta‘lim</b>	47	1,4	0,04	0,04	0,05
<b>Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish</b>	39	1,04	-	-	-
<b>Transport</b>	1	1,01	-	-	-
<b>Soliq</b>	1	0,21	-	-	-
<b>Agrosanoat</b>	2	0,14	-	-	-
<b>Madaniyat</b>	2	0,03	-	-	-
<b>Huquqni muhofaza qilish</b>	1	0,03	-	-	-
<b>Qurilish</b>	1	0,01	-	-	-
<b>Jami</b>	182	231,2	6,1	10,8	17,7

\*–Davlat ishtirokidagi korxonalar (“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ) tomonidan to‘lanadi

Davlatning shartli majburiyatlari – DXSh loyihalarini amalga oshirish davrida yuzaga kelishi muddatlari va hajmi noaniq bo‘lgan, shuningdek, davlat tomonidan nazorat qilish imkonini bo‘lmagan kelajakdagi muayyan hodisalar natijasiga ko‘ra Davlat budjetining oldida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy moliyaviy majburiyatlar.

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi 558-sonli qarori

DXSh loyihalarida shartli majburiyatlar qarz kafolatlari, sotib olish bilan bog‘liq xatarlar (davlatga qarashli bo‘lgan korxonalar bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan moliyaviy majburiyatlar), talab bilan bog‘liq xatarlar, valyuta risklari (to‘lovlar erkin valyutaga bog‘langan loyihalardan) va shartnomalar muddatidan oldin bekor qilingan hollarda yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur xatarlardan birortasi yuzaga kelgan taqdirda, to‘lovlar DXSh bitimi qoidalariga asosan amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda muddatidan oldin shartnomalarni bekor qilish ehtimoli juda past bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2023-yil yakuniga ko‘ra 3,7 foizni tashkil etmoqda. Shu sababli, shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganligi uchun kompensatsiya to‘lovlari amalga oshirilmagan. Xususiylar sheriklar tashabbusi bilan 2021-2023 yillarda isitish, hunarmandchilik, ta‘lim, suv xo‘jaligi va kommunal sohalarda jami 38 ta loyihalar muddatidan oldin bekor qilingan (2021-yilda 2 ta, 2022-yilda 8 ta bitim va 2023-yilda 28 ta bitim bekor qilingan, 2-jadval).

**Muddatidan oldin bekor bo‘lgan DXSh loyihalari to‘g‘risida ma‘lumot (01.01.2024 holatiga)**

Soha nomi	Bekor bo‘lgan bitimlar soni	Bekor bo‘lgan bitimlar qiymati (mlrd so‘m)	Kompensatsiya to‘lovi <sup>6</sup>
Ta‘lim	3	47,8	0
Suv xo‘jaligi	2	7,4	0
Madaniyat	1	6,0	0
Kommunal	2	14,0	0
Ijtimoiy soha obyektlari isitish tizimlarini modernizatsiya qilish	22	162,1	0
Hunarmandchilik	8	3,6	0
Jami	38	241,0	0

Ta‘kidlash joizki, davlat sherigi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi DXSh loyihalarining sifatli bajarilishini monitoring qiladi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni boshqaradi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi kelgusi yillarda fiskal xatarlarni baholashni kengaytirishni va ta‘sir darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kelgusi hisobotlarda aks ettirishni rejalashtirmoqda.

**Xulosa**

Ushbu maqolada DXSh tizimining O‘zbekistonda rivojlanishi va iqtisodiy tahlili yoritildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bir qator huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar ishlab chiqilgan. 2017-yildan boshlab, mamlakatda muhim islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, xususiy sektorni jalb qilish maqsadida infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sherikchilik tizimi kengaytirildi. Bu jarayonning samaradorligini oshirish uchun soliq siyosatini takomillashtirish, moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish, va biznes muhitini yaxshilash bo‘yicha bir qator qadamlar qo‘yildi. Tadqiqotda shuningdek, DXSh loyihalarining moliyaviy tahlili va ularga investitsiyalar jalb qilishda yuzaga keladigan fiskal majburiyatlar va shartli majburiyatlar haqida ham muhokama qilindi.

DXSh loyihalarining O‘zbekistonda kengayishi, mamlakatda iqtisodiy o‘sish va barqarorlikka erishishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Yangi huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar, xususan, davlat tomonidan belgilangan fiskal majburiyatlarni boshqarish va nazorat qilish tartibining takomillashuvi, xususiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, davlatning iqtisodiy majburiyatlarini samarali boshqarishga yordam beradi. Xususiy sektorni jalb qilishda qo‘llaniladigan xalqaro tajribalar va innovatsion moliyaviy modellar, ayniqsa energetika, infratuzilma va ijtimoiy sohalarda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda DXSh loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun hali ham bir qator muammolar mavjud. Xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashda hukumatning rolini yanada kuchaytirish, loyihalarga investitsiya kiritish uchun sarmoyadorlarni rag‘batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Tadqiqotda ko'rsatilganidek, yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va yangi mexanizmlar yaratish, ayniqsa xususiy investorlarga moliyaviy xavfsizlik va rentabellikni ta'minlash uchun muhimdir.

Tadqiqot shuningdek, O'zbekistonda davlat-xususiy sherikchilik tizimi orqali amalga oshirilayotgan loyihalar sonining va miqdorining ortishi, infratuzilma va energetika sohalaridagi katta investitsiya hajmlari o'zgarishlarni keltirib chiqarayotganini ko'rsatadi. Biroq, bu jarayonni yanada samarali qilish uchun, davlatning to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlarini yanada aniqroq va moslashuvchan tarzda boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bunda, davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining o'zaro ishonchli va samarali ishlashini ta'minlash uchun huquqiy va moliyaviy tizimlar to'g'risidagi yangilanishlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda DXSh tizimining rivojlanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi yanada o'zaro ishonchni mustahkamlashga, iqtisodiy o'sish va rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Shuning uchun, kelajakda bu tizimning yanada samarali ishlashini ta'minlash uchun ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish, moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish va davlatning iqtisodiy majburiyatlarini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. SH.M. Mirziyoyev M54 Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: “O'zbekiston” nashryoti, 2022.-416 bet ISBN 978-9943-7951-7-4
2. Izvorski Ivailo V.;Vatyan Arman; Trushin Eskender; Abdul-Hamid Husein; Dalvit Nicolo; Safarov Maksudjon; Iooty De Paiva Dias Mariana; Novikova Marina; Melecky Martin; Ahmedov Mohirjon; Manuilova Natalia; Zorya Sergiy; Nagaraj Vinayakraj. *Assessing Uzbekistan's Transition : Country Economic Memorandum : Full Report (English)*. Washington, D.C. : World Bank Group.  
<http://documents.worldbank.org/curated/en/862261637233938240/> Full-Report
3. Private Participation in Infrastructure Database, World Bank, 2016  
<https://ppi.worldbank.org/en/ppi>
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida”gi 537-sonli qarori
5. Xiangyu Quan, Marte C.W. Solheim, Public-private partnerships in smart cities: A critical survey and research agenda, City, Culture and Society, Volume 32, 2023, 100491, ISSN 1877-9166, <https://doi.org/10.1016/j.ccs.2022.100491>.  
(<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877916622000522>)
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining moliyaviy hisobotidan [www.imv.uz](http://www.imv.uz)
7. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2023-yildagi O'RQ-886-sonl Qonuni
8. DXSh bitimiga muvofiq